



RASSOM O.K. TATEVOSYAN ASARLARIDA AN'ANAVIY HAYOT TARZI TASVIRI

Bo'riyev To'liq Xurramovich,

“Samarqand” davlat muzey-qo'riqxonasi tarix bo'limi mudiri

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19604324>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda yashab ijod etgan rassom Oganes Tatevosyanning hayoti, uning sharq san'atiga hayrati, hamda sharq sana'tining ta'siri ostida rassom ijod yo'nalishining yangilanishi, shuningdek asarlaridagi sharqona joziba xususida bilib olish mumkin. Bundan tashqari maqolada rassom tomonidan O'rta Osiyo halqlarining maishiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan rang tasvir asarlari haqida ham ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar: O.K. Tatevosyan, O'zbekiston, Samarqand, rang tasvir, eski shahar, muzey-qo'riqxonalar, fond, rassom, asar.

Annotation. This article will tell you about the life of the artist Hovhannes Tatevosyan, who lived and worked in Uzbekistan, his admiration for oriental art, and the renewal of the artist's creative direction under the influence of oriental art, as well as the oriental charm in his works. In addition, the article will provide information about the artist's color paintings related to the everyday life of the peoples of Central Asia.

Keywords: O.K. Tatevosyan, Uzbekistan, Samarkand, fine arts, old city, museum-reserve, foundation, artist, work.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasiga Rossiyaning turli shaharlaridan kelgan bir qator rassomlar faoliyati tufayli O'rta Osiyoda tasviriy san'at yanada jonlandi. Ularning orasida rassom Tatevosyanning alohida o'rni bo'lib, u O'zbekistonning turli shaharlarida istiqomat qiluvchi xalqni ijtimoiy hayotini kuzatib o'rganada va o'zini keyingi hayoti davomida kuzatuvlari natijasini o'z asarlarida namoyon etadi. [1, b.295]

Rassomning tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlarga kelsak, Tatevosyan Oganez Karapetovich (1889–1974) 1889 yilda Yerevanda tikuvchi oilasida tug'ilgan. 1897-1903 yillarda Yerevandagi diniy seminariyada o'qigan. 1908-1909 yillarda Tbilisi san'at maktabida tahsil olgan. 1910-1917 yillarda Moskva rassomchilik, haykaltaroshlik va arxitektura bilim yurtida tahsil olgan. 1912 yilda Tatevosyan O.K. Yerevanda o'zining birinchi shaxsiy ko'rgazmasini tashkil qiladi. [2, b.106]

Mashhur rassomlar K. Korovin, A. Arxipov va N. Kasatkinlardan tahsil olgan O. Tatevosyan butun ijodiy hayotini Markaziy Osiyoga bag'ishladi. U realistik rus rassomchilik maktabi an'analari asosida ishlagan. Rassom tomonidan 1915-1917 yillarda O'rta Osiyoda yaratilgan ajoyib rang tasvir asarlarizamondoshlari tomonidan iliqlik va quvonch bilan kutib olinadi. Uni ham, boshqa ko'plab rassomlar kabi, hayotning o'ziga xos xususiyati, ya'ni gavjum ko'chalar va maydonlar, me'morchilik binolari, odamlar o'ziga jalb qiladi. 1915 yilda chizilgan «Tush vaqti», «Tuyalar qo'nog'i», 1916 yilda chizilgan «Choyxona tunda», 1917 yilda chizilgan «Karvonsaroy» va boshqalarana shunday asarlar jumlasidandir. [3, b.412]



O. Tatevosyan 1917 yilda Moskva rassomlik, haykaltaroshlik va arxitektura bilim yurtini tugatgandan so‘ng Samarqandga ko‘chib keladi. Uni dastlabki eskizlarida Samarqandning kechki ko‘chalaridagi oqshom chiroqlarining nurlari turli xil ranglar aralashmasida g‘ayrioddiy tarzda ko‘rsatib berilgan. Sharqning milliy dekorativ san‘atidan hayratga tushgan Tatevosyan, rang tasvirning yangi uslublari haqidafikr yurita boshlaydi. U o‘ziga xoslikni izlash uchun goh ibtidoiylik ruhida ishlashga harakat qilgan bo‘lsa (“Bezgakning chekinishi”), goh o‘zining asarlarini miniatyuraga aylantiradi (“Eski Samarqand”). Gohida esa realistlik uch o‘lchovli talqin qilingan old fonni tekis dekorativ fon bilan birlashtiradi. So‘ngra aniq va hajmli talqin qilingan oldingi fonni tekis dekorativ fon bilan birlashtiradi (“Bog‘larga yo‘l”). Keyinchalik Tatevosyan tinch, batafsil tasvirlash uslubiga o‘tadi. Uning “Kattaqo‘rg‘on suv omborida” (1939-1940) asari shu turkumga xosdir. [1, b.299]

Ijodkorning 1915-1917 yillargacha ishlagan asarlarida ustozi K.Korovinning kuchli ta‘siri sezilgan bo‘lsa, unda keyingi davr asarlarida nafaqat ijroda, balki rassomning ishlash uslubida ham o‘ziga xoslik vujudga keladi. Buni asarlarning g‘oyaviy va estetik tarkibidagi o‘zgarishlardan bilib olish mumkin. O. Tatevosyan o‘zini kashf etish orqali ilgarigi eskizlar va janr asarlari o‘rniga chuqur g‘oyaviy yo‘nalishda ishladi. Ularda rassom voqelikdan olgan taassurotlarini ifoda etishga va ular haqida o‘zining tasviriy tilida aytib berishga, hamda yangi ijodiy hayotini o‘zida mujassam etishga intiladi.

O. Tatevosyan o‘z asarlarini keng ommaga tushunarli qilish maqsadida o‘zbek xalqining dekorativ san‘ati, devoriy suratlari va miniatyura san‘atini o‘rganadi, jahon san‘atining yangi hodisalari bilan tanishadi. [5, b.295]

Tatevosyan 1918-1919 yillarda Samarqandda “Samarqand kommunasi” nomli rassomchilik maktabini tashkil qilib, u yerda dars beradi, hamda 1919-1920 yillarda Samarqand qadimiy yodgorliklarini muhofaza qilish komissiyasini tashkil qilib, unga rahbarlik qildi. 1921-1927 yillarda “VXUTEMAS” bilim yurtining keramika fakultetida tahsil oladi va 1922 yilda keramika ustaxonasi va rassomchilik maktabini tashkil qiladi. 1925 yilda “VXUTEMAS” talabalari guruhi tarkibida u Parijdagi zamonaviy dekorativ va sanoat san‘ati xalqaro ko‘rgazmasi bilan tanishish uchun boradi.

Rassom 1932 yilda Toshkentga ko‘chib o‘tadi va 1932-1934 yillarda Toshkent Davlat san‘at muzeyi fondi muhofizi lavozimida ishladi. 1934-1936 yillarda ommaviy bayramlar vaqtida badiiy bezak ishlari bilan shug‘ullangan.

1937-1940 yillarda Moskvada bo‘lib o‘tgan Butunittifoq qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasida O‘zbekiston pavilonini loyihalashda bosh rassom sifatida ishtirok etgan. 1938-1966 yillarda O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi boshqaruv a‘zosi bo‘lgan.

1941 yilda Amir Temur maqbarsidagi qabrlarni ochib o‘rganish bo‘yicha tuzilgan arxeologik ekspeditsiya tarkibida qabrlarni o‘rganish jarayonida qatnashgan. [6, b.106] 1943 yilda “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” unvoni bilan taqdirlangan. 1943-1944 yillarda O‘zbekiston rassomlar uyushmasi prezidiumi



a'zosi bo'lgan. 1944 yilda “O‘zbekiston SSR xalq rassomi” unvoni bilan taqdirlangan. 1944-1947 yillarda SSSR Badiiy jamg‘armasining O‘zbekiston filiali raisi bo‘lgan. 1952-1953 yillarda SSSR Badiiy jamg‘armasi kengash a‘zosi bo‘lgan. (Л.В. Шостко, Оганес Татевосьян, Москва: Издательство «Советский художник», 1977, С. 106.)

Tatevosyan O. o‘zining Samarqandga bag‘ishlangan asarlarini yorqin ranglarda ishlagan bo‘lib, ularda asosan qadimiy me‘morchilik yodgorliklarning go‘zalligini, bozorlar va ko‘chalardagi hayot manzaralarini ko‘rish mumkin. (*История искусства народов СССР. Том-8, Москва 1977, С.378*)

Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasida rang-tasvir asarlari jamlanmasiga kelib tushgan dastlabki rang tasvir asarlari jumlasiga rassomlar S. Dudinning “Darvish”, L.L. Burening 1905 yilda “Moskva” (KP 810), 1911 yilda “Shohizinda gumbazlarning sharq tomondan ko‘rinishi” (KP 807), 1913 yilda “Cho‘ponota mozori” (KP 796), 1914 yilda “Hazrat Xizr masjidi” (KP 797), Kazemir Mamerning “Qora tanli ayol boshi” (KP 893), A.Padlinning “Bog‘ning ayvondan ko‘rinishi” kartinalarini kiritish mumkin.

Muzey-qo‘riqxonada fondida ijodkorning 80 dan ortiq rang tasvir asarlari saqlanib, ulardan bir nechtasini sanab o‘tamiz.

“Shohizindaga kirish” asarida rassom Samarqand shahrining qadimiy me‘morchilik obidalaridan biri Shohizinda majmuasiga kirish eshigi va ziyoratgohga kelib-ketayotgan milliy libosdagi mahalliy aholi vakillari tasvirlangan. Asarning o‘ng tomonida tasvirlangan katta daraxt soyasi ostida, bir guruh bolali ayollar va eshakda o‘tirgan bola tasviri tushirilgan. Ziyoratgohga kirish eshigining o‘ng tomonidabir guruh sallali mo‘ysafidlar suhbat qurib, dam olib turgan holatda ishlangan. Majmua eshigi oldida va kirish eshigiga olub boruvchi zinapoyada ham ziyorat uchun kelgan kishilar tasvirlangan bo‘lib, ularning yuzlari noaniq qilib ishlangan. Asar issiq ranglarda ishlangan bo‘lib, rassomning ajoyib mahorati sababli tomosha qilgan kishini o‘ziga jalb qila oladi. Asar matoga moybo‘yoq bilan ishlangan. (*Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 a., B. 28-29*) “Eski Samarqanddagi ko‘cha” asarida esa eski shahardagi ko‘chalardan biri tasvirlangan bo‘lib, uzoqqa cho‘zilgan ko‘chani quyosh nurlari yoritib turibdi. Ko‘chaning ikki tomonida paxsa bilan qurilgan eski uylar qad ko‘targan. Ko‘chaning chap tomonida unchalik baland bo‘lmagan ikki qavatli uy joylashgan bo‘lib, darvozaxona ustiga qurilgan boloxonaning old qismi ayvon qilingan va u anchagina oldinga chiqib turibdi. Ko‘cha bo‘ylab harakat qilib ketayotgan oq yaktak kiygan odam qiyofasi noaniqroq qilib ishlangan bo‘lib, tomoshabindan uzoqlashib bormoqda. Ko‘chaning o‘ng tomonida joylashgan uy yonidagi daraxt ham noaniqroq qilib ishlangan. Osmon ufqda moviy rangda tasvirlangan. Rassom ushbu asarni mahorat bilan ishlagan bo‘lib, asarni tomosha qilgan kishi asarda yozning quyoshli issiq kunlaridagi tush payti tasvirlanganini ilg‘ab olishi mushkul emas. Asar matoga moybo‘yoq bilan ishlangan. (*Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 a., B. 32-34*)



“Samarqand. Shahar chekkasi.” asari ikkinchi jahon urushi davrida 1944 yilda ishlangan bo‘lib, unda odamlar bilan gavjum bo‘lgan shahar chekkasidagi ko‘chalardan biri yoz kunlarida tasvirlangan. Asarning o‘ng tomonida savdo rastasi joylashgan va uning peshtaxtasiga soya bo‘lishi uchun ustki qismi yashil rangdagi mato bilan to‘sib qo‘yilgan. Savdo rastasi atrofi odamlar bilan gavjum. Ko‘chada paranji yopingan ayollar va boshlariga ro‘mol o‘ragan yosh qizaloqlar, hamda hayot tashvishlari bilan ovora bo‘lgan kishilar tasvirlari tushirilgan. Bundan tashqari rassom eski shahar hududidagi mahalliy aholi xonadonlarini ham ajoyib ranglar aralashmasida ishlangan bo‘lib, asarning old plani baland daraxtlar va binolar soyasida ishlangan, orqa planda esa quyosh nurlari taralib turgan ko‘cha va suvoqli pastqam uylarning tomlari kishini o‘ziga mahliyo qiladi. Asar matoga moybo‘yoq bilan ishlangan bo‘lib, mato kartonga yelimplangan. (*Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 b., B. 94-95*)

Rassomning 1929 yilda ishlangan “Hordiq” nomli asarida eski Samarqand bozorlaridan biri yaqinidagi choyxonada bir piyola choy ustida suhbat qurib dam olib o‘tirgan kishilar tavirlangan. Old planda joylashgan daraxt soyasidagi so‘rda choylashib turgan erkaklar oldida choynak va piyolalar ishlangan. Milliy liboslar, keng ko‘ylaklar, belbog‘, salla va do‘ppilar bilan ishlangan erkaklar surati ikki guruhda tasvirlangan bo‘lib, birinchi guruh o‘zaro suhbat qilib turgan holatda ishlangan bo‘lsa ikkinchi guruh esa, go‘yoki bozordagi qizg‘in hayotni tomosha qilayotgandek ishlangan. Orqa planda esa usti chodir bilan yopilgan, sap-sariq bo‘lib pishgan qovunlar sotilayotgan savdo rastalari ko‘rinib turibdi. Asarning o‘ng yuqori burchagida daraxt shohlari orasidan ko‘rinib turgan baland ayvonli inshoot hamda moviy osmon tasviri tushurilgan. Muallif tomonidan yorqin ranglar aralashmasida ishlangan ushbu asar ham kishi diqqat e‘tiborini o‘ziga jalb qila oladi. Asar matoga moybo‘yoq bilan ishlangan bo‘lib, mato faneraga yelimplangan. (*Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 b., B. 97-98*)

“Qovun bozori” asari ham ikkinchi jahon urushi davrida, ya‘ni 1944 yilda yaratilgan bo‘lib, rassomning ushbu asarida Samarqandning eski shahar ko‘chasi va ko‘cha o‘rtasidagi qovun sotuvchilar tasvirlangan. Asarning orqa planida Bibixonim masjidi xarobalari va eski shahar loy suvoq uylari issiq ranglar bilan tasvirlangan. Asar markazida qovun sotuvchilar va xaridorlar figuralari har xil harakatda joylashtirilgan. Asarda yana ish ustidagi sartaroshlar figuralari; oldingi planda o‘tirgan holatdagi qovun tanlayotgan qariya va qo‘llarida qovun ushlab turgan qizil kiyimdagi yigit tasvirlangan. Har xil rangdagi qovunlar yerga sholcha ustiga uyib qo‘yilgan. Asarning pastki o‘ng burchagida ish ustidagi sartarosh yigit va o‘tirgan mijoz. Oyoq yalang holda tasvirlangan sartarosh yigitchaning egnida yaktak, belida esa yashil rangli belbog‘i bor. Asarning yuqori qismida daraxt shoxlari oldingi plandagi figuraga soya tashlab turibdi. Asar markazidagi o‘tirgan qariya tasviri to‘q ranglar bilan ishlanib bevosita e‘tiborni asar markaziga yig‘adi. Asar matoga moybo‘yoq bilan ishlangan. (*Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 d., B. 93*)



“Bibixonim masjidi oldidagi bozor” asari ham ikkinchi jahon urushi davrida, ya'ni 1944 yilda yaratilgan. Asarda Temuriy davlatining asoschisi Sohibqiron Amir Temur tomonidan 1399-1404 yillarda qurilgan Bibixonim (Amir Temur) jome' masjidi yaqinidagi shahar bozori maydoni tasvirlangan. Old planda asar ishlangan kartonning butun kengligi bo'ylab odamlar to'plangan. Bozorda mahsulot sotayotgan erkak va ayol sotuvchilar o'zlari sotayotgan uyum-uyum qilib yoki qopi bilan qo'yilgan mahsulotlar yonida o'tirgan holda ishlangan. Sotuvchi ayollar paranjilari chochvonlarini orqaga tashlagan holda tasvirlangan. Mahalliy aholi vakillarining barisi milliy bosh kiyim va liboslarda: erkaklar yengil ko'ylak va salla yoki do'ppi kiygan, ayollar esa yorqin libos va ro'mollarda ishlangan. Xaridorlar orasida mahalliy millat vakillariga mansub bo'lmagan bo'lmagan ayol va erkak tasviri ham bo'lib, ular sochlarini mayda o'rib boshiga do'ppi kiygan milliy libosli qizaloq bilan nimalarnidir suhbatlashmoqda. Ularning yuzlari noaniq holatda tasvirlangan bo'lib, ayol och siyoh rangli yengsiz ko'ylakda, erkak esa old qismi ochiq turgan kostyumda ishlangan. Asarning orqa planida Bibixonim jome' masjidining xarobalari ko'rinib turibdi. Asar kartonga moybo'yoq bilan ishlangan. (*Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 v., B. 20*)

Rassomning 1958 yilda ishlangan “Tong. Samarqand ohangi.” asarida odamlar bilan gavjum bo'lgan bozor tasvirlangan. Asarning old plani o'ng tomonida va o'rta plan, hamda orqa plan markazlarida tarvuz uyumlari joylashgan. Odamlar tarvuz uyumlari oldida to'plangan holda o'zlariga ma'qul bo'lgan tarvuzlarni tanlab olishmoqda. Rassom ushbu asarni yaratish jarayonida shundayranglar aralashmasidan foydalangan-ki, go'yoki bozordagi sotuvchi va xaridorlarning kiyimlari rangi zamin rangi bilan uyg'unlashib ketgandek. Asar matoga moybo'yoq bilan ishlangan bo'lib, mato kartonga yelimlangan. (*Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 b., B. 95*)

“Bibixonim masjidi yonida” asari ham 1944 yilda ya'ni ikkinchi jahon urushi davrida chizilgan bo'lib, ushbu asar tarixiy obidalar tasviri turkumidan hisoblanadi. Asarda “Bibixonim jome' masjidi” yonidagi bozor ko'rsatilgan. Birinchi planda masjid yonidagi pastqamgina uylar oldida, gavjum bozorda, asosan o'z ishlari bilan o'ralashib yurgan ayollar tasvirini ko'rish mumkin. Undan keyingi planda “Bibixonim jome' masjidi”ning yarim nuragan peshtoqi va baland gumbazi tasvirlangan. Asarda sovuq ranglarning berilishi tasvirdagi og'ir kunlar kayfiyati sezilib turibdi. Bo'yoqlar uzib-uzib keng ishlangan. Asosan yashil, kulrang, qizil, sariq, moviy, qo'ng'ir va ko'k ranglardan foydalanilgan. Asar kartonga mato yelimlanib, moybo'yoqda ishlangan. (*Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 d., B. 123*)

“Oltin hosil” asari manzara janrida ishlangan bo'lib, 1929 yilda yaratilgan. Ushbu asarda, eski Samarqandning “Bibixonim jome' masjidi” yonida joylashgan bozor ko'rinishi aks ettirilgan. Unda gavjum bozor, birinchi planda yerga to'kilgan bir uyuum qovun va handalaklar va sotuvchilar, hamda saralab olayotgan xaridor tasvirlangan. Xaridor yosh yigit ko'rinishida, egnida malina rangli chopon va boshiga



pushti salla o‘ragan holda, sotuvchi yosh yigit ko‘rinishida, oqish pushti chit ko‘ylak-
ishton, boshiga pushti do‘ppi kiygan holatda tasvirlangan. Undan keyingi planda
shovqin bozor tasviri aks ettirilgan. Asar daraxtlar ortidan ko‘rinib turgan, O‘rta
Osiyoda bunyod qilingan ilk jome’ masjid “Hazrati Xizr masjidi” tasviri bilan
yakunlangan. Asarda asosan sariq, pushti, yashil va ko‘k ranglardan foydalanilgan.
Asar matoga moybo‘yoq asosida ishlangan, bo‘lib, mato kartonga yelmilangan.
(*Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi.
№29 d., B. 127*)

Rassomning 1960 yilda ishlangan “Tush payti” asarining asosini quyosh nurida
qizib turgan yerlar tashkil etadi. Asarning oldingi planida yerda qovun sotayotgan
erkak va uning atrofida bolasini ko‘tarib turgan va o‘tirib savdolashayotgan ayollar,
otda ketayotib, savdoni kuzatayotgan erkak, qovun sotuvchining orqasida qo‘lida
tarvuz bo‘lagini ushlab turgan bola tasviri ishlangan bo‘lib, turli ranglarda moxirona
tasvirlangan. Tasvirning ikki tomonida chodirlar tortilgan rasta va chap tomonda
loysuvoqli, ustunli oldi ayvonli uy tasvirlangan. Asarning o‘rtarog‘ida ikki yonidagi
xo‘rjinga yuk ortilgan eshakni minib ketayotgan kishi tasvirlangan. Rassomning
mahorati tufayli ushbu asarda foydalanilgan yorqin ranglardan asardagi vaqtning issiq
tush payti ekanligini bilib olish mumkin. Asar matoga moybo‘yoqda ishlangan bo‘lib,
mato faneraga yelimgan. (*Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir
asarlari fondi inventar kitobi. №29 d., B. 144*)

XX asrning 50-60-yillarining boshlarida katta va o‘rta avlodning bir qator yirik
rassomlari hisoblanmish - O. Tatevosyan, N. Kashina, N. Karaxan, A. Abdullaevlar
to‘plangan katta professional tajribani qayta ko‘rib chiqish asosida tasviriy san’ati
rivojlanishidagi yangi hodisalar ta’sirida izlanishlarini sezilarli darajada yangilaydi.
Ushbu va boshqa rassomlarning har birining ishlarida, asarning yanada katta
ekspressivligiga erishish uchun o‘zlarining badiiy vositalarini yangilash va boyitishga
bo‘lgan intilish turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi va bu barcha rassomlar uchun
samarali natijalarga olib keladi (O. Tatevosyan “Bahor”, “Bizning anorlar”, “Tabiat
bolalari”)

“Bahor” asari 1961 yilda yaratilgan bo‘lib, unda tog‘ yonbag‘rida joylashgan
qishloq manzarasi tasvirlangan. Asarning old planida loydan qilingan pastqam uylar
oldida alohida-alohida guruhlarda turgan odamlar (ayollar va bolalar) tasvirlari
ishlangan. Ular yorqin rangli kiyimlar (ko‘k, qizil, binafsha, pushti, jigarrang)
kiyingan. Tepalik ustidagi mevali daraxtlar pushti rangda gullagan holatda
tasvirlangan. Bahor osmoni yorqin ko‘krangda ishlangan bo‘lib, bu havonining
musaffo va ochiqligidan dalolatdir. Asar kartonga moybo‘yoqda ishlangan.
(*Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi.
№29 d., B. 129*)

1939 yilda ishlangan “Ayollar” etyudi manzara janrida ishlangan bo‘lib, ushbu
asarda dam olib o‘tirgan ayollar tasvirlangan. Yozning issiq kunlarining birida dala
mehnatidan keyin tushlik vaqtida, daraxt soyasida dam olib o‘tirgan bir guruh ayollar
aks ettirilgan. Ayollarning ko‘pchiligi qizil, sariq, pushti rangli ko‘ylaklar kiyishgan



va boshlariga ro‘mollar o‘rashgan. Ayollarning tasviri noaniq chiziqlar orqali ko‘rsatib berilgan, ayollar qalin daraxtning quyruq soyasida o‘tirishibdi. Asar baland tog‘lar va ochiq osmontasviri bilan yakunlangan va issiq sovuq ranglar kontrast ravishda berilgan. Asarda asosan qizil, jigarrang, binafsharang, sarg‘ish, oqish, yashil, qo‘ng‘ir va ko‘k ranglardan foydalanilgan. Asar matoga moybo‘yoqda ishlangan bo‘lib, kartonga yelimplangan. (*Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 b., B. 99*)

Xulosa qilib shuni aytsak bo‘ladiki, Tatevosyan rang tasvir asarlari o‘zining tasviriy mahorati va yorqinligi bilan boshqa rassomlar ishlaridan ajralib turadi. Misol uchun Bure L.L. o‘zining aksariyat asarlarida O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekistondagi tarixiy obidalarni, Benkov P.P. o‘zbek xalqining maishiy turmush tarzini, Volkov A.N. qishloq hayotini tasvirlagan, Vereщagin V.V. esa batal janrida ishlagan bo‘lsa, Tatevosyanni eski shaharning gavjum ko‘chalari, bozorlari, mahalliy aholi vakillari to‘planadigan joylar o‘ziga jalb qilgan va rassom o‘z asarlarida shularni tasvirlagan.

Tatevosyan O‘zbekiston hududiga kelib yashay boshlagandan keyin, uning ijodiy yo‘nalishida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Chunki u dastlabki ishlarini ustozlariga ishlariga monand holatda ishlagan bo‘lsa, o‘zbek me‘moriy va dekorativ san‘ati va rassomchilikning minatyura san‘atlari uni o‘ziga rom etdi. Bu Tatevosyaning 1918 yildan keyin ishlagan barcha asarlarida o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Tomoshabin uning keyingi davrda ishlagan asarlarida o‘zbek tasviriy san‘atining ta‘sirini yaqqol sezilib turishini kuzatuvlar jarayonida anglashi mumkin.

Masalan, Tatevosyan odamlar bilan gavjum bo‘lgan shahar maydonlari va bozorlarni tasvirlaganda, odamlarning qiyofalarini o‘ziga xos chizgilar bilan noaniq qiyofada ishlaganiga qaramasdan, ishlatgan ranglarning o‘zaro uyg‘unligi kishini bevosita o‘ziga jalb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. История искусства народов СССР. Том-6 Москва. 1982 г. С-214
2. История искусства народов СССР. Том-7 Москва. 1972 г. С. 295, 299
3. История искусства народов СССР. Том-8 Москва. 1977 г.С. 377, 378
4. История искусства народов СССР. Том-9 книга-2 Москва 1984 г.С. 214.
5. Эгамбердыев А. Жанровая живопись Узбекистана. Ташкент 1989, С. 20
6. Л.В. Шостко, Оганес Татевосьян, Москва: Издательство «Советский художник», 1977, С. 10
7. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 a., B. 28, 29, 33-34
8. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi rang tasvir asarlari fondi inventar kitobi. №29 b., B. 94-95, 97-98, 99